



## XALQ DEPUTATLARI PARKENT TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 4 - noyabr

VI-57-116-10-141-K/22

Parkent tuman hokimligi

**Parkent tumanida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida tashkil etilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga qo'shimcha mablag'lar ajratish to'g'risida.**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi "Mahalliy byudjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi KQ-213-IV sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-sonli "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2022- yil 25- oktyabrdagi PQ-409-sonli "Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Xalq deputatlari Parkent tumani Kengashi

### QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 25- oktyabrdagi PQ-409-sonli "Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Parkent tumanida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida tashkil etilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga joriy yil ikkinchi mavsumida 2 000 dan ortiq ovoz to'plagan, lekin g'olib deb topilmagan takliflar ro'yhati 1-ilovaga asosan ma'qullansin.

3. Tuman hokimligi Moliya bo'limi (Moderator) ma'lumotlarni "Ochiq budjet" portaliga joylashtirilib borilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Parkent tumani Kengashining "Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish asallari bo'yicha" doimiy komissiyasi raisi B. Ruxitdinov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi



Sh.Shoaxmedov

Xalq deputatlari Parkent tuman Kengashining  
2022 yil 4 noyabrda  
VI-57-116-10-141-K/22-son qaroriga  
I-ilova

Parkent tumani bo'yicha 2022 yil 2-mavsum jamoatchilik fikri asosida 2000 ta va undan ortiq ovoz olib g'olib bo'lmagan tadbirlarni bo'yicha  
**QO'SHIMCHA MANZILLI RO'YXATI**

№	G'olib taklif ma'lumotlari			Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Xaqiqatda ajratilgan mablag'	Moliyalashtirish manbaasi (FTJ, qo'shimcha manbaa, byudjet parametri)	Buyurtmachi tashkilot
	Taklif ID raqami	Taklifning qisqacha mazmuni	To'plangan ovozlar soni				
1	2	3	4	5	6	7	8
1	1880600062	Shampan mfy Ozod Sharofiddinov, Munavvar va Zakovat ko'chalarining 9750 kv metr yo'lga asfalt qoplamasini yotqizish	4853	1 170 000 000,00	1 170 000 000,00	4853	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi
2	1880600185	Fayzobod MFY 55-maktab binosi kanalizatsiya tizimini to'liq ta'mirlash	3761	1 000 000 000,00	1 000 000 000,00	3761	Tuman Xalq ta'limi bo'limi
3	1880600073	Toshkent viloyati Parkent tumani "Saidota" MFY O'zbekiston, Azamatova, Bahor ko'chalari 2,5 km ichki Farobiy ko'chasi yullarini mukkamal tamirlash		1 100 000 000,00	1 200 000 000,00	2135	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi

\*) Izox: Aniqlangan smeta hujjatlari asosida mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2021 yil 22 apreldagi KQ-213-IV-sonli qaroriga asosan shaxsiy xarakterdagi xarajatlarga yo'naltirilmaydi.